



O‘QUVCHILAR NUTQIDAGI DIALEKTAL KAMCHILIKLARNI BARTARAF QILISH

Sevinch Utaniyozova

*Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy
tillar fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti
yo‘nalishi 3-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilar nutqidagi dialektal xatolarning yuzaga kelish sabablari to‘g‘risida ma‘lumot berildi. O‘quvchilarning nutqida yuz beradigan dialektal xatolarga alohida to‘xtalib, ularni bartaraf qilish bo‘yicha tavsiyalar keltirildi.

Kalit so‘zlar: nutq, dialekt, sheva, adabiy til, dialektal xato, sinonimik qator.

O‘zbek tili o‘zbek xalqining milliy tili bo‘lib, umumiy ta‘lim sistemasida asosiy o‘quv predmentlaridan biri hisoblanadi. Chunki ona tili inson hayoti uchun asosiy vositadir. Shuning uchun ham “Ona tilini o‘rganish-bu nihoyatda ulug‘ bir ish. Inson tafakkurining eng oliy yutuqlari, eng chuqur bilimlar va alangali tuyg‘ular so‘z vositasi bilan aniq va ravshan ifodalanmasa odamlar uchun noma‘lumligicha qolaveradi. Til fikrni ifodalash qurolidir. Binobarin, bu fikr nutq vositasi bilan qilingan bo‘lsa, filosoflar aytganidek, u boshqalarga bevosita borib yetsa, reallashsagina fikr bo‘la oladi. Ona tilini bilish sizning kelajakdagi ishlaringiz uchun talab qilinadigan eng asosiy narsa, deb aytganimning sababi ham shunda. O‘zbek tili ko‘p shevaligi bilan boshqa tillardan ajralib turadi. D. E. Polivanov ham o‘zining kitobida ta‘kidlashicha, turkiy tillarning hech qaysisi o‘zbek tilichalik dialektlarga boy, rang-barang emas, har qaysisida bir adabiy tilga asos bo‘ladigan darajada lahjalar mavjuddir. [Polivanov, 1933]. Turkiy tillar shevalarini chuqur tadqiq qilgan mashhur dialektolog olim D.E. Polivanovning ushbu gaplari qalbimizda faxr tuyg‘usini uyg‘otadi.

“O‘qitish sifatini oshirish tadbirlari” degan maqolasida “o‘quvchilar adabiy til normalarini yetarli darajada bilmaydilar. Yozma ishlarda sxematik jummlar ko‘plab uchraydi, ma‘lum masalalar bo‘yicha o‘zlari mustaqil fikr yuritishda ancha qiynaladilar. Ularning yozma ishlarida dialektal xatolar uchraydi”, -deb yozadi M. Mirzaev maktab ta‘limida dialektalizmlarni bartaraf qilishning samarador medodi sifatida qiyosiy tablitsalardan foydalanishni tavsiya qiladi. Dialektizmlar: qarinja-chumoli; secha-chumchuq; sas-tovush; sovut-tol; taka-yostiq; gizlamoq-yashirmoq; andimoq-poylamoq; yumriq-musht, qumri-musicha, yo‘rinja-beda va boshqalar.

Bunday misollarni ijtimoiy hayotning turli sohalaridan juda ko‘plab keltirish mumkin. Keltirilgan misollarning o‘ziyoq o‘quvchilar nutqida o‘zbek shevalarining o‘g‘uz va qipchoq guruhiga xos qator fonetik leksik va grammatik xususiyatlar bilan izohlanadigan dialektal xatolar mavjudligi tabiiy ekanligini ko‘rsatib beradi. Maktab



ta'limida bunday dialektalizmlarni bartaraf qilish uchun O'zbekiston hududidagi o'g'uz va qipchoq shevalarining xarakterli leksik, fonetik, morfologik xususiyatlarini, ularning o'zbek adabiy tilidan farqini, o'g'uz qipchoq shevalarining tarqalgan teritoryasini o'rganish va aniq grammatik mavzularni o'qitish munosabati bilan ular haqida o'quvchilarga qisqagina ma'lumot bera olish lozim.

Dialektal xatolar, avvalo, o'quvchining og'zaki nutqida paydo bo'ladi. Bolada atrofdagilar bilan aloqa qilishning boshlanishidanoq u oilasidagilar mahallasidagilar bilan aloqa munosabat qila boshlaydi. Ana shunday obyektiv qonuniyatga ko'ra, bolaning nutqida hali u maktabga kelmasdanoq mahaliy shevaning talaffuz normalari, leksik va morfologik xususiyatlari shakllanadi va ular o'quvchining og'zaki nutqida uzoq saqlanib qoladi. Buning asosida dialektal orfoepik va orfografik xatolar sodir bo'ladi. Ikkinchidan, o'quvchida grammatik, orfoepik malakalarning shakllanmaganligi ham dialektal xatolarni keltirib chiqaradi. O'zbek tili darslarida sinf va sinfdan tashqarida tashkil qilingan maxsus mashqlarda o'quvchilar nutqidagi orfoepik dialektizmlar aniqlanadi. Misol uchun: ot mavzusi o'tilayotgan paytda gashir-sabzi, biyi-behi, ashkadi-qovoq, jang'aq-yong'oq, o'jak-buzoq, pishiq-mushuk, araba-arava, gujum-g'o'ra, tumcha-oftoba, vayish-ustun, norbon-narvon, qotiqosh-qatig'li osh, balla-bolalar va boshqa so'zlarda aytiladigan so'zlarning asl adabiy tilda aytilishining asoslarini o'rgatish zarur hisoblanadi. O'quvchilar og'zaki va yozma nutqida yo'l qo'ygan nutqiy xatolarni o'z vaqtida to'g'rilab borish zarur. O'quvchi yo'l qo'ygan xatosining to'g'ri variantini o'zlashtirsin, imkoni bo'lsa, xatoning kelib chiqish sababini tushunsin. Xatoni to'g'rilashning eng foydali usuli yo'l qo'ygan xatosini o'quvchining o'zi to'g'rilashi hisoblanadi, agar o'quvchi xatosini to'g'rilay olmasa, uni o'qituvchi to'g'rilaydi. Xato turiga qarab to'g'rilanadi: gap yoki so'z birikmasi qayta tuziladi, so'z boshqasi bilan almashtiriladi, zarur so'z qo'shiladi, ortiqchasi ustidan chiziladi. O'quvchilar og'zaki va yozma nutqida yo'l qo'ygan nutqiy xatolarni o'z vaqtida to'g'rilab borish zarur. O'quvchi yo'l qo'ygan xatosining to'g'ri variantini o'zlashtirsin, imkoni bo'lsa, xatoning kelib chiqish sababini tushunsin. Xatoni to'g'rilashning eng foydali usuli yo'l qo'ygan xatosini o'quvchining o'zi to'g'rilashi hisoblanadi, agar o'quvchi xatosini to'g'rilay olmasa, uni o'qituvchi to'g'rilaydi. Xato turiga qarab to'g'rilanadi: gap yoki so'z birikmasi qayta tuziladi, so'z boshqasi bilan almashtiriladi, zarur so'z qo'shiladi, ortiqchasi ustidan chiziladi.¹

¹ K.Qosimova, S.Matchonov, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldasheva, Sh.Sariyev, "Ona tili o'qitish metodikasi", Toshkent "NOSIR" nashriyoti 2009,



O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishdagi muvaffaqiyat quyidagi ikki asosiy omilga bog'liq:

- 1) so'zga e'tibor bilan munosabatda bo'lish, o'quvchilarning ko'p mutolaa qilishi, atrofidagi kishilarning to'g'ri va ifodali nutqi, ya'ni nutqiy sharoit;
- 2) bolalarning nutqiy tajribasi qanday tashkil etilishi;

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, orfoepiya qoidalari o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. Buning uchun o'qituvchining nutqi mukammal bo'lishi va u xatolar ustida ishlashni o'quvchilarga o'rgatishi, o'quvchilarning ham og'zaki va yozma nutqini mukammal bo'lishiga undashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Bo'ronov. "Qoraqalpog'iston dagi o'zbek maktablari o'quvchilari nutqidagi dialektal xatolar va ularni bartaraf qilish yo'llari", NUKUS "Qoraqalpog'iston" 1990,29-bet
2. R.A.Rayimov, "Janubiy Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalarida ma'nodosh so'zlar", Tilshunoslik fanlari magistri darajasini olish uchun dissertatsiya, NUKUS-2007,
3. K.Qosimova, S.Matchonov, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldasheva, Sh.Sariyev, "Ona tili o'qitish metodikasi", Toshkent "NOSIR" nashriyoti 2009.